

«Ipoteka-bank» ATIB aksiyadorlari diqqatiga!

Toshkent shahar, Shahrizabz ko'chasi, 30-uyda joylashgan «Ipoteka-bank» ATIB, 2021 yil 20 sentyabr kuni soat 11⁰⁰ da, masofadan turib elektron ovoz berish xizmati orqali bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi bo'lib o'tishini ma'lum qiladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi internet orqali onlayn rejimda, masofadan turib yig'ilishni olib borish imkonini beruvchi <http://evote.uz/> manzilidagi "eVOTE" – Elektron ovoz berish xizmati yordamida o'tkaziladi.

Yig'ilish kun tartibi:

1. "Ipoteka-bank" ATIB tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirish kiritishni tasdiqlash.
2. "Ipoteka-bank" ATIB Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan rag'batlantirish va kompensatsiyalar to'g'risidagi nizomni yangi tahrirda tasdiqlash.

- Aksiyadorlarni navbatdan tashqari umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida **xabardor qilish** uchun reestrni shakllantirish sanasi: 2021 yil 23 avgust.

- Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida **ishtirok etish** huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar reestrini shakllantirish sanasi: 2021 yil 14 sentyabr.

- Aksiyadorlar navbatdan tashqari umumiy yig'ilishga oid hujjatlar bilan bankning www.ipotekabank.uz korporativ veb-sayti, <http://evote.uz/> orqali tanishishlari yoki cenbum@ipotekabank.uz elektron manzili orqali so'rov yuborishlari mumkin.

Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish <http://evote.uz/> saytida internet orqali ularning elektron ovoz berish xizmatidan foydalangan holda yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatiga kiritilganligi to'g'risida elektron xabarnoma olingan paytdan boshlab amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish shartlari bilan <http://evote.uz/> manzili bo'yicha elektron ovoz berish xizmati orqali tanishishingiz mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun telefon raqamlari: (78)147-67-17, 150-89-16.